

BO'LAJAK MATEMATIKA VA INFORMATIKA O'QITUVCHISINI TAYYORLASHDA MUSTAQIL TA'LIMNING AHAMIYATI

Nosirova Dilnoza Toir qizi JDPI o'qituvchisi
Kuchiboyeva Dilafroz Suvon qizi JDPI bitiruvchisi
Jalilov Shavkat Toir o'g'li O'ZMU Jizzax filiali talabasi

Har bir fan bo'yicha mavjud ma'lumotlarni puxta egallash, egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llay olish o'z mutaxassisligi bo'yicha malakasini muntazam oshirib borish, o'z sohasi bo'yicha dunyo miqyosidagi yangiliklardan doimo xabardor bo'lish va ulardan o'z faoliyati davomida foydalana olish, innovatsion faoliyat olib borish, bunda masofaviy ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish bo'lajak mutaxassislar oldiga qo'yilgan davr talablaridandir. Bugungi kunda talabalarni yuqoridagi talablarga javob bera oladigan mutaxassis qilib yetishtirish muhim ahamiyatga ega bo'lib, u ta'lim jarayonini mustaqil bilim olish asosida, yangicha ko'rinishlarda tashkil qilishga undaydi.

Mustaqil ta'lim- oliy ta'lim muassasasi talabalarida pedagog rahbarligi va nazorati ostida o'quv hamda mutaxassislik fanlari bo'yicha ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarida egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, boyitish, ular tomonidan yangi bilim, ko'nikma va malakalarni mustaqil o'zlashtirilishini ta'minlash, ularni kasbiy faoliyatni mustaqil tashkil eta olishga tayyorlashga yo'naltirilgan ta'limdir.

Bu turdagi ta'lim talabalar tomonidan o'quv, mutaxassislik fanlari asoslarini chuqur egallash, ularda topshiriqlarga ijodiy yondashish, mustaqil fikrlash, o'z bilimlarini izchil oshirib borishga intilish, adabiyotlardan keng, samarali foydalanish borasidagi ko'nikma, malakalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda yuz berayotgan jahon tajribasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, talabalar mustaqil ishlarini tashkil qilishga va o'tkazishga qo'yilayotgan talablar oshib borayotganini ko'rish mumkin. Talabalar mustaqil ishlarining rolini oshishi esa butun o'quv-tarbiya jarayonini tashkil qilishni qaytadan ko'rib chiqishni taqozo

etmoqda. O'quv-tarbiya jarayonini shunday tashkil qilish kerakki, bu jarayon talabalarda o'qish, ayniqsa mustaqil o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishi, talabalarda o'z-o'zini boshqarish va rivojlantirish qobiliyatlarini, shuningdek egallagan bilimlarini amaliyotda ijodiy qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirish kerak.

Ma'lumki, talabalar mustaqil ishlari ko'p hollarda ta'lim sifatini belgilaydi. Agar oldin ta'lim sifati egallangan bilim, ko'nikma va malakalar bilan aniqlangan bo'lsa, bugungi kunda ta'lim sifati egallangan kompetensiyalarga ya'ni, uning shaxsini, kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishni talab etmoqda.

Mustaqil ta'lim olishni tashkil etish uchun nafaqat muayyan kasbga yoki faoliyat sohasiga qiziqish, balki ushbu faoliyat turiga layoqatning mavjud bo'lishi ham talab etiladi. Mustaqil ta'lim shaxsning o'zi tomonidan boshqarilishini e'tiborga olib, bu faoliyat bilan inson erkin holda va istagan vaqtda manbalardan o'zi tanlab, maqsad, vosita, mazmun nuqtai nazaridan foydalanishi mumkin.

Mustaqil bilim olishda avtonomlik bu-o'qitish maqsadlari, tamoyillari, mazmuni, metodi va vositalarni aniqlash va tanlash, ularni qiynalmasdan hamda tashqi ta'sir yordamisiz, amalga oshirish qobiliyatidir. Mustaqil ta'lim bevosita mustaqil fikrlash bilan uzviy bog'liqligi sababli unga berilgan ta'rifni ham keltirib o'tish maqsadga muvofiq: «Mustaqil fikrlash - insonning o'z oldida turgan muammolarni maqsad va vazifalarini belgilagan holda o'z bilimi va hayotiy tajribalariga tayanib, turli yo'l, usul, vositalar yordamida, o'zining intellektual imkoniyatlari darajasida mustaqil ravishda hal qilishdan iborat bo'lgan aqliy faoliyatidir».

Matematika va informatika yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan bo'lajak bakalavr-o'qituvchilarda mustaqil bilim olishga qiziqish va qobiliyatni pedagogik madaniyatni takomillashtirishga chorlovchi omil sifatida shakllantirish lozim. Muammoni hal etishning muhim omili sifatida matematika va informatika yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan bo'lajak bakalavr-o'qituvchilardan pedagogik takomillashish, kasbiy bilimlarni chuqurlashtirish va malakasini oshirish talab

etiladi. Matematika va informatika o'qituvchisi o'z bilimini mustaqil oshirish faoliyatini aniq bir maqsadga yo'naltirishi va bu maqsadga erishishi uchun quyidagi shartlarga rioya qilishi kerak.

1. O'z bilimini mustaqil oshirish mazmunini matematika va informatika o'qituvchisi mutaxassisligi bo'yicha pedagogik amaliyot o'tayotgan ta'lim muassasasining o'quv binosidagi aniq sharoitlarga, amaliyotning sharoitlari, talablariga moslashtirishi kerak.

2. Matematika va informatika o'qituvchisi ma'lum maqsad asosida va ma'lum tartibda o'zida quyidagi sifatlarni shakllantirib borishi kerak:

- talabalarning intilishlari, qiziqishlarini chuqur his qilish, tushunish, ularning ma'naviy ehtiyojlarini hisobga olib bilish;

- talabalar bilan emmotsional aloqa o'rnatish, ularning aqliy, axloqiy va amaliy faoliyati tomonlariga faol ta'sir etish.

3. Matematika va informatika o'qituvchisi umumiy pedagogika, psixologiya va mutaxassislik fanlari bo'yicha savollar ro'yxatini mustaqil o'rganib chiqishlari shart.

4. Matematika va informatika o'qituvchisi o'zining pedagogik mahoratini oshirish ustida ishlash tizimining eng samarali usullari, yo'llarini tanlab olishi, texnologik jarayon va texnik obyektlarni to'g'ri tanlab faoliyat ko'rsatishi kerak.

5. Matematika va informatika o'qituvchisi aniq sharoitlarni hisobga olgan holda va ularga mos tarzda individual holda yoki jamoa bilan birga o'z bilimini oshirish shakllaridan foydalanishi, amaliy mashqlar bajarishi maqsadga muvofiq.

6. Matematika va informatika o'qituvchisi o'z bilimlarini oshirishni doimiy ijodiy izlanishlar tarzida tashkil etish va ma'lum maqsadga yo'naltirish zarur.

Buning uchun u:

- ijodiy izlanishlar jarayonini boshqarishga moyil bo'lishi;

- ijodiy izlanishlarning samaradorligi o'qituvchining pedagogik, psixologik va nazariy tayyorgarligiga bog'liq bo'lishini esda tutishi lozim.

Yuqoridagi fikrlar matematika va informatika o'qituvchisining mustaqil ta'lim olishi yangicha ijodiy tafakkurga ega bo'lgan kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatib turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nosirova, D. (2020). MODULLI KREDIT TIZIMIDA TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINING AHAMIYATI. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
2. Nosirova D., Pardayeva Z., Xummamatova K. The main forms of organization of independent work of students in the credit-module system. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT)* november, 2020.
3. Qizi, N. D. T., Uktamovna, P. Z., & Khairullaevna, K. K. (2020). The Main Forms of Organization of Independent Work of Students un the Credit-Module System. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 23(2), 529-531.
4. Nosirova M., Nosirova D. Modulli kredit tizimida talabalar mustaqil ishlarining axamiyati. Ta'limga kompetensiyaviy yondashuv: muammo va echimlar. Respublika onlayn ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami I. Andijon-2020.
5. Nosirova M., Nosirova D., Kubaeva L. Kredit texnologiyasi asosida o'qitish - talabalar kompetensiyalarini oshirish omili sifatida. Ta'limga kompetensiyaviy yondashuv: muammo va echimlar. Respublika onlayn ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami I. Andijon-2020.
6. Mamatov, J., & Parmonov, A. (2020). Tasvirli masala matematikani o'qitish samaradorligini oshirish vositasi sifatida. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 109-109.
7. М. Носирова, Д. Носирова, Ж. Маматов. Таълимнинг маъруза усули ва уни инновацион технологиялар асосида ташкил қилиш. “Умумфилологик тадқиқотлар: муammo ва echimlar”. Илмий-амалий конференция материаллари. ЖДПИ. Жиззах. 2015 йил 16 июнь.

8. Mamatov, J. (2020). Tasvirli masalalar tuzishda yo'l qo'yiladigan kamchiliklarni yop'qotish haqida. Архив Научных Публикаций JSPI.